

**O`ZBEK HUQUQ SHUNOS OLIMASI XADICHA SULAYMONOVANING
ILMIY MEROSI VA SUD – HUQUQ TIZIMI RIVOJIGA QO`SHGAN HISSASI**

**THE SCIENTIFIC HERITAGE OF UZBEK LEGAL SCHOLAR KHADICHA
SULAYMONOVA AND HER CONTRIBUTION TO THE DEVELOPMENT OF
THE JUDICIAL AND LEGAL SYSTEM**

Kamolova Shaxrizoda

TDYU huzuridagi M.S.Vosiqova nomidagi Akademik litsey o`quvchisi

Skamolova318@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Xadicha Sulaymonovanning hayoti, ilmiy faoliyati va O`z.huquq tizimi rivojiga qoshgan hissasi yoritilgan. Shuningdek, uning davlat va jamiyatdagi orni hamda yosh avlod uning ibratli faoliya haqida ma`lumot berilgan.*

Kalit so`zlar: *Xadicha Sulaymonova, huquq, olim, akademik, jinoyat huquqi, sud tizimi, O`zbekiston, ilm – fan, davlat arbobi, qonun ustuvorligi.*

Abstract: *This article highlights the life, scientific activity, and contribution of Khadicha Sulaymonova to the development of the legal system of Uz.tan. It also provides information about her role in the state and society, as well as her exemplary activities for younger generation.*

Key words: *Khadicha Sulaymonova, laiv, scholar, academician, criminal law, judicial system, Uz.fan, science, statesperson, rule of law.*

KIRISH


Xadicha Sulaymonova - O`zbekiston fani va huquq sohasi rivojiga katta hissa qo`shgan mashhur olim, davlat arbobi va akademikdan biridir.

U nafaqat yuridik fanning rivojlanishiga, balki jamiyatdagi ayollarning ilm – fandagi o`rnini mustahkamlashga ham katta xizmat qilgan. Xadicha Sulaymonova o`zining bilimdonligi, mehnatsevarligi fidoyiligi bilan xalq orasida katta hurmat qozonadi.

HAYOTI VA FAOLIYATI

Xadicha Sulaymonova 1913 yil 5 – iyun Andijonda tug`ulganlar. 1935 – yilda Jahon Obidova nomidagi Toshkent Sovet qurulishi va huquq unstituning yuridik fakultetini tamomlagan.

1935 – 1938 – yillarda xalq sudyasi, O`z. ton.SSR oliy sudining a`zosi bo`lgan.



1938- yil sentyabrda Xadicha Moskva yuridik institutining sovet jinoyat huquqi kafedrası aspiranturasiga o`qishga kiradi va 1945 – yil 10 – iyulda `O`zbekiston SSRning harbiy intervensiya davridagi jinoyat qonunchiligi va fuqorolar urushi` mavzusida nomzodlik dissertasiyasini himoya qiladi hamda huquqshunoslik bo`icha ilmiy darajaga ega bo`lgan birinchi o`zbek ayoliga aylanadi.

Sulaymonova 1945 – yil sentyabrdan Toshkent yuridik instituti jinoyat huquqi kafedrası dotsenti, mudiri sifatida ishlay boshladi. 1948 – 1950 – yillarida Xadicha Sulaymonova SSSK fanlar akademiyasining yuridik institutida doktorant bo`lgan. 1950 – yil dekabr oyida `O`zbekistonda sovet jinoyat huquqining paydo bo`lishi va rivojlanishi` mavzusida doktorlik dissertasiyasini himoya qiladi va 1952 – yilda professor unvinini oladi.

1954 – yil sentyabrda Toshkent yuridik institute rektori etib tayinlanadi, shu yilning dekabr oyida Xadicha Sulaymonova O`zbekiston SSRda xizmat ko`rsatgan fan arbobi unvoni bilan taqdirlanadi. 1955 –yilda Toshkent yuridik institute o`rta Osiyo davlat universitetining (SAGU) yuridik fakulteti etib qayta tashkil etilganidan so`ng jinoyat huquqi kafedrası mudiri bo`ladi. 1956 – yilda Xadicha Sulaymonova fanlar akademiyasining haqiqiy a`zosi etib saylanadi.

1956 – 1958 yilda akademik Sulaymonova O`zbekiston SSR Adliya vaziri, 1959 – 1964 – yilda o`zbekiston SSR oliy kengashi deputati, 1964 – yildan O`zbekiston SSR oliy sud raisi sifatida faoliyat olib bordi.

Davlat va jamiyatdagi o`rni. Pedagogik faoliyat.

Xadicha Sulaymonova davlat boshqaruvi tizimida ham faol ishlagan. U turli misol lavozimida faoliyat yuritib, adolat va qonuniylikni ta`minlash yo`lida xizmat qilgan. Uning faoliyati o`zbekistonda huquqiy davlat qurulishiga katta hissa bilan qo`shilgan. Shuningdek, u ayolning jamiyatdagi o`rnini mustahkamlash, ularni ilm – fan va davlat ishida faol bo`lishga undosh borasida ham katta namuna bo`lgan. Bugungi kunda ham Xadicha Sulaymonova nomi yuksak hurmat bilan tilga olinadi.

15-May, 2026-yil

Akademik Sulaymonova o`z datqiqotlarda o`zbekiston jinoyat huquqini rivojlantirish, davlat qurulishi va xalq xo`jaligini boshqarishda keng go`shlarning rolini oshirishga katta e`tabor beradi. Xadichadan ortiq ilmiy va ilmiy ammbop nashrga, jumladan Eshonov va O`zbekistonning boshqa huquqshunos olimi bilan hamkorlikda tayyorlangan 3 jildlik `O`zbekiston Sovet davlati va huquqi tarixi`, :Huquq masalali` `O`zbekiston xalq xo`jaligini tartibga solish to`g`risida`, `Kommunizmning keng qurilishi davridagi o`zbekiston sovet huquqi` va shu kabi yirik asar yozdi: Akademik Sulaymonova raxbarligida jinoyat huquqi bo`yicha o`zbek tilida birinchi darslik tayyorlanib nashr etilgan.

Adliya vaziri va Yuridik komissiya raisi lavozimida ishlagan davrida o`zbekiston SSRning sud tizimi, jinoyat, jinoyat – protsessual, fuqarolik va fuqarolik protsessual kodeksi to`g`risidagi yangi qonunni ishlab chiqish va qabul qilishga hissa qo`shgan.

Xadicha Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi

Xadicha Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi – O`zbekistondagi eng muhim ilmiy va amaliy sud ekspertiza muassasidan biridir. Ushbu markaz sud – huquq tizimida adolatni ta`minlash, jinoyatlarni fosh etish va turli ekspertiza tadqiqotlarni amalga oshirish bilan shug`ullanadi. Markaz o`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzurida faoliyat yuritadi.

Markazning tarixi 1951- yilda tashkil etilgan tosh. Ilmiy – texnik kriminalistika laboratoriyasidan boshlanadi. 1958 – yilda uning negizida sud ekspertizasi ilmiy – tadqiqot institute tashkil etilgan. Keyinchalik u Respublika kriminalistika markazi, so`ng esa sud ekspertiza markaziga aylantirilgan. Bugungi kunda markazda kriminalistika, sud biologiyasi DNK ekspertizon, sud – xatshunoslik, sud avtotexnika, iqtisodiy ekspertiza, fonoskopiya va boshqa ko`plab yo`nalish bo`yicha ekspertiza o`tkaziladi. Bu erga 30 dan ortiq turdagi sud ekspertizasi amalga oshiriladi.

So`ngi yilda markaz faoliyatini yanada takomillashtirish bo`yicha yangi qarorlar qabul qilinmoqda. Jumladan, Toshkent viloyati hududining bo`limini tashkil etish, GNO va ichimlik suvini taxlil qiluvchi laboratoriyalar ochish rejalashtirilgan.

Markaz nafaqat ekspertiza ishli bilan, balki ilmiy tadqiqot, mutaxassislik tayyorlash va huquqni muxofaza qiluvchi organlarga metodik yordam ko`rastish bilan ham shug`ullanadi. Shu sababli u O`zbekiston sud- huquq tizimining muhim ilmiy markazidan biri hisoblanadi.

Xadicha Sulaymonova 1965 – yil 26 – noyabrda og`ir va uzoq davom etgan xastalikdan so`ng vafot etdi. Chig`atoy qabristoniga davn qilingan.

Akademik Sulaymonova nomi sud ekspertizasi ilmiy tadqiqot institutiga va Toshkent shaxrining markaziy ko`chalaridan biriga berildi.

Xadicha Sulaymonova asarlari

Olimaning ilmiy asarlari huquqiy davlat qurilish qonun ustivorligi va inson huquqlarini himoya qilish masalalariga bag`ishlangan asarlari.

Xadicha Sulaymonova ko`plab ilmiy maqolalar, monografiya va o`quv qo`llanmalari muallifi bo`lgan. Uning ilmiy ishi nafaqat O`zbekistonda, balki boshqa davlatlarning huquqshunos olimlari tomonidan ham etirof etilgan.

15-May, 2026-yil

X.Sulaymonovanning asarlari bugungi kunda ham yuridik oliygoxlari, ilmiy tadqiqotchilar va talabalari uchun muhim manba hisoblanadi.

Uning ilmiy merosi yosh avlodni adolat, qonuniylik va vatan parvarlik ruhida tarbiyalashga katta ahamiyatga ega.

XULOSA

Xadicha Sulaymonova – o`z hayotini ilm – fan va xalq xizmatiga bag`ishlagan buyuk shaxslardan biridir. Uning ilmiy merosi, huquq sohasidagi xizmatlari va yosh avlod tarbiyasiga qo`shgan hissasi beqiyosdir. U O`zbekiston tarixida yuksak o`rin egallagan olima va fidoyilik inson sifatida abadiy xotirada qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O`zbekiston milliy ensiklopediyasi.
2. O`zbekiston huquq tarixi bo`yicha darsliklar
3. Xadicha Sulaymonovanning ilmiy maqolalari va tadqiqotlari
4. O`zbekiston olimalari haqida biografik manbalar

REFERENCES:

1. National Eneyclopedia of Uzbekistan
2. Text books on the history of lauv of Uzbekistan
3. Scientific Articles and Research Works of KHadicha Sulaymonova
4. Biographical Sources about Women Scholars of Uzbekistan